

"Smart Bank" AJda yuridik shaxslar va
yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks
bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
Universal shartnomaga 1-ilova

**"Smart Bank" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank
xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga qo'shilish haqidagi
OMMAVIY OFERTA**

Ushbu ommaviy oferta (bundan keyin "**Oferta**") "Smart Bank" AJning (bundan keyin "**Bank**") yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 369 va 370-moddalariga muvofiq ravishda, mazkur Ofertada ko'zda tutilgan tartib va hajmda, Bankda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha **Universal shartnomaga** (bundan keyin "**Universal shartnoma**") qo'shilish shartnomasini tuzish haqidagi rasmiy taklifidir.

Ushbu Oferta yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkorning Universal shartnomani tuzish va unga qo'shilishining umumiy shartlarini o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bank hisobvarag'ini ochmasdan masofaviy bank xizmatlaridan (bundan keyin "**MBX**" deb yuritiladi) foydalanishi mumkin. Keyinchalik Bankda hisobvaraq ochilgan taqdirda, yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor Bank tomonidan taqdim etiladigan barcha bank xizmatlari va mahsulotlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ofertada bosh harf bilan yozilgan atamalar Universal shartnomada keltirilgan atamalar va ta'riflar bilan bir xil ma'noga ega.

1. Oferta predmeti

1.1. Ushbu ofertaning predmeti O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasiga muvofiq yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning Universal shartnomaga Foydalanuvchi sifatida hech qanday shart, istisno va e'tirozsiz so'zsiz va to'liq qo'shilishidan iborat.

1.2. Universal shartnomaga qo'shilish shartnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan ushbu Oferta, Universal shartnoma va Bank tariflarining barcha shartlarini so'zsiz va shartlarsiz qabul qilishni (akseptlashni) anglatuvchi ushbu Ofertada ko'zda tutilgan harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi.

1.3. Universal shartnoma va Bank tariflari Bankning korporativ veb-saytida, Bankning mobil ilovasida, shuningdek Bankning xohishiga ko'ra boshqa manbalarda e'lon qilingan.

1.4. Universal shartnoma va unga ilovalarning qoidalari Tomonlar tomonidan tuzilgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda Universal shartnoma va unga ilovalarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi (bundan keyin "qonunchilik" deb yuritiladi) nazarda tutilgan asoslar bo'yicha bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

2. Ofertani qabul qilish

2.1. Ushbu Ofertani qabul qilishdan avval yuridik shaxsning vakolatli shaxsi (rahbari, buxgalteri yoki boshqa mas’ul shaxs) yoki yakka tartibdagi tadbirkor ushbu Oferta shartlari, Universal shartnoma va unga ilovalar, shuningdek Bank tariflari bilan tanishib chiqishi shart.

2.2. Quyidagi harakatlar bajarilgandan so‘ng, yuridik shaxsning vakolatli shaxsi yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan ushbu Oferta qabul qilinganligi tasdiqlanadi:

2.2.1. Bankning mobil ilovasi yoki veb-ilovasini qurilmaga o‘rnatish;

2.2.2. Bankning mobil ilovasi yoki veb-ilovasida tegishli belgini (tasdiq belgisini) qo‘yish orqali ushbu Oferta, Universal shartnoma va unga ilovalar, shuningdek Bank tariflari bilan ixtiyoriy ravishda tanishib chiqqanligi va roziligin tasdiqlash;

2.2.3. O‘z mobil telefon raqamini ko‘rsatgan holda Foydalanuvchi hisobini ro‘yxatdan o‘tkazish, SMS xabar orqali yuborilgan tasdiqlash kodini (OTP-kod) Bankning mobil ilovasi yoki veb-ilovasiga kiritish, hamda Hisob uchun parol yaratish;

2.2.4. Foydalanuvchining yuz biometriyasi orqali masofaviy identifikatsiyadan o‘tishi, zarur ma’lumotlarni kiritishi va lavozimini belgilashi;

2.2.5. Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning elektron raqamli imzosini kiritish orqali Foydalanuvchi hisobida ro‘yxatdan o‘tish.

2.3. Ushbu ofertani qabul qilish bilan yuridik shaxsning vakolatli vakili yoki yakka tartibdagi tadbirkor quyidagilarni tasdiqlaydi:

2.3.1. ushbu Oferta, Universal shartnoma va uning Ilovalarini, shuningdek Bank tariflarini to‘liq o‘qib chiqqanligini, ularga rozi ekanligini, barcha shartlarini qabul qilishini va ularga rioya etish majburiyatini olishini;

2.3.2. login, parol yoki tasdiqlash kodini kiritish bilan bog‘liq barcha harakatlar, shuningdek tasdiqlash oynasidagi barcha amallar yuridik shaxsning vakolatli vakili yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan shaxsan bajarilishini;

2.3.3. Bankning mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tish paytida ishonchli, haqiqiy va to‘liq ma’lumotlar taqdim etilganligini;

2.3.4. Ofertaga muvofiq qo‘llaniladigan login, parol va/yoki tasdiqlash kodlari uning bank hisobvaraqlardagi pul mablag‘larini boshqarish huquqini tasdiqllovchi yetarli vositalar ekanligini;

2.3.5. Xizmatlar doirasidagi harakatlarni tasdiqlash, jumladan, SMS/xabarlar orqali mobil telefon raqamiga yuboriladigan bir martalik tekshiruv kodlari yordamida amalga oshirilishi haqida xabardor ekanligini va bunga roziligin;

2.3.6. o‘zining yangi mobil telefon raqami haqida yoki mobil telefon yo‘qolgan taqdirda, shuningdek, elektron pochta manzili va boshqa shaxsiy ma’lumotlari o‘zgargan hollarda Bankni xabardor qilish zarurligi to‘g‘risida xabardor ekanligi va bunga roziligi;

2.3.7. Bankka o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi, jumladan: hisob ma’lumotlari, mobil telefon raqami, familiyasi, ismi, otasining ismi, ro‘yxatdan o‘tish ma’lumotlari, shuningdek, Bankning mobil ilovasidagi xizmatlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday shaxsiy ma’lumotlarni olish, uzatish va Bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida uchinchi shaxslar tomonidan qayta ishlashga ruxsat beradi;

2.3.8. Bankka O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi va boshqa tashkilotlardan shaxsiy ma’lumotlarni olish va foydalanishga rozilik beradi;

2.3.9. Universal shartnoma va unga ilovalar doirasida Tomonlarning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi, shuningdek, Universal shartnomaga qo‘shilish bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar hamda Universal shartnoma va Bank tariflariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish tartibi bilan to‘liq tanishganligini tasdiqlaydi;

2.3.10. Universal shartnomada belgilangan tartibda xabarnomalar yuborish orqali Bankning mobil telefon raqamiga, elektron pochta manziliga va mobil ilovasiga xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq reklama, tijorat yoki boshqa ma’lumotlarni olishga rozilik beradi;

2.3.11. Yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan taqdim etilgan aloqa ma'lumotlari Bank tomonidan unga Bank xizmatlariga oid har qanday ma'lumotni yetkazish uchun foydalanishi mumkin. Yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor uchinchi shaxslarning autentifikatsiya vositalaridan foydalanishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladi;

2.3.12. Bankka taqdim etilgan ma'lumotlardagi har qanday muhim o'zgarishlar haqida Bankni zudlik bilan xabardor qilishga rozilik beradi;

2.3.13. Bank va uning hamkorlari tomonidan o'tkaziladigan sodiqlik dasturlarida, jumladan aksiyalar, tanlovlardan shu kabilarda ishtirok etishga rozilik beradi;

2.4. O'zbekiston Respublikasining elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi qonunchiligiga asoslanib, Tomonlar ushbu qabul qilingan Ofertani qog'oz shaklidagi shartnomaga tenglashtirishga va uning yuridik kuchini tasdiqlashga rozilik bildiradilar;

2.5. Oferta, shuningdek Universal shartnomada unga Ilovalar doirasida tayyorlanadigan hujjatlar to'liq yuridik kuchini saqlab qolgan holda, Tomonlarning muhr bilan tasdiqlashi va/yoki o'z qo'li bilan imzolashi talab etilmaydi;

2.6. Ushbu Ofertaning barcha shartlari yoki uning biror qismiga rozi bo'lmagan taqdirda, yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor ushbu Ofertani qabul qilmasligi lozim.

2.7. Bank yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkorning shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish, shaxsiy ma'lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligiga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarga noqonuniy ishlov berishning oldini olish huquqini ta'minlaydigan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va texnik choralarни ko'radi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları

3.1. Tomonlarning huquq va majburiyatları Universal shartnomada belgilanadi va yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan ushbu Oferta qabul qilinganidan so'ng kuchga kiradi.

3.2. Yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor uchinchi shaxslarning Autentifikatsiya ma'lumotlaridan, shu jumladan kirish vositalaridan foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek uchinchi shaxslarning Bankning mobil ilovasiga va/yoki mobil telefoniga hamda Bankning mobil ilovasi o'rnatilgan boshqa har qanday qurilmaga uning Autentifikatsiya ma'lumotlarini kiritib kirishiga imkon bemaslik majburiyatini oladi.

4. Tomonlarning javobgarligi va nizolarni hal qilish tartibi

4.1. Tomonlar ushbu Oferta doirasidagi majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qonunchilik va Universal shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Bank mobil ilovasidan foydalanish yoki foydalana olmaslik (Bank mobil ilovasini mobil qurilmaga o'rnatish, yuklab olish va keyinchalik undan foydalanish) oqibatlari, shuningdek, bunday foydalanish yoki foydalana olmaslik natijasida uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

4.3. Nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal etiladi.

5. Ofertaning amal qilish muddati, uning shartlariga o'zgartirishlar kiritish va uni bekor qilish tartibi

5.1. Ushbu Oferta uning 2.2-bandida ko‘rsatilgan tartibda qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va Universal shartnoma hamda qonunchilikda belgilangan asoslarga ko‘ra bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

5.2. Bank ushbu Oferta shartlariga kiritilayotgan o‘zgarishlar haqida Mijozni rejalashtirilgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish sanasidan kamida 10 (o‘n) kun oldin xabardor qiladi. Bunda Universal shartnoma va qonunchilikda belgilangan tartibda xabarnoma yuborish majburiy hisoblanadi.

5.3. Bank istalgan vaqtida texnik, tashkiliy, huquqiy yoki boshqa sabablarga ko‘ra ushbu ofertani nomuayyan muddatga muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Buning uchun yuridik shaxsning vakolatli shaxsiga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga bekor qilish sabablari ko‘rsatilgan xabarnoma yuboradi.

6. Yakuniy qoidalar

6.1. Bank va yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor o‘rtasidagi ushbu Ofertada ko‘zda tutilmagan munosabatlar qonunchilik va Universal shartnoma asosida tartibga solinadi.

6.2. O‘zbekiston Respublikasining "Bank siri to‘g‘risida"gi, "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi va "Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida"gi qonunlariga muvofiq, yuridik shaxsning vakolatli vakili/yakka tartibdagi tadbirkor Bankka o‘z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni, shaxsga doir ma’lumotlarni, shuningdek qonun bilan himoyalangan boshqa sir ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etishga erkin ravishda, o‘z xohishi va manfaatlarini ko‘zlab rozilik beradi.

6.3. Tomonlar elektron shakldagi hujjatlarni, shu jumladan Bankning mobil ilovasi orqali to‘ldiriladigan va tuziladigan hujjatlarni oddiy yozma shaklda tuzilgan hujjatlar sifatida tan olishga kelishib oldilar.

6.4. Agar ushbu Ofertaning biror qoidasi qonun hujjatlariga muvofiq g‘ayriqonuniy va/yoki haqiqiy bo‘lmasa, bunday Oferta qoidalari Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llanilmaydi. Ofertaning qolgan qoidalari to‘liq yuridik kuchini va amal qilishini saqlab qoladi.

6.5. Ushbu Oferta bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan o‘zbek va rus tillarida e’lon qilingan. Turlicha talqin qilingan taqdirda rus tilidagi matn ustunlikka ega bo‘ladi.

7. Bank rekvizitlari

"SMART BANK" aksiyadorlik jamiyati.

Manzil (joylashuv): O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahri, Botir Zokirov ko‘chasi, 2A-uy.

Ma’lumot olish uchun telefonlar (Bank Aloqa markazi):

1377, (+998 78) 777-13-77

Rasmiy korporativ veb-sayt: www.smartbank.uz

E-pochta: info@smartbank.uz